

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Veterinariya va chorvachilik” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
O‘zbekiston issiq iqlim sharoitiga chidamli yilqilarning yangi seleksiya guruhlarini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - mavjud mahalliy yilqi zotlarini tanlash va saralash usulini qo‘llash orqali maqbul tipdagi seleksiya guruhlarini shakllantiriladi; - shakllantirilgan seleksiya guruhlaridagi biyalar mahsuldorligi yuqori bo‘lgan ayg‘irlar bilan urchitiladi; - yangi olingan avlodning issiq iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi va umumiy eksteryer ko‘rsatkichlari o‘rganiladi; - olingan avlodlarning issiqqa chidamli koeffitsiyenti o‘rganiladi; - yilqilarning O‘zbekiston issiq va quruq iqlim sharoitlariga chidamli bo‘lgan yangi seleksiya guruhlarini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi